



HOZIRGI IQTISODIY RIVOJLANISHDA TASHQI SAVDO SHUNINGDEK , EKSPORTNING AHAMIYATLI TOMONLARI.

Ikramov Saidrahim

Termiz davlat universiteti “Jinoyat huquqi
va fuqarolik protsessi “
kafedrasida o’qituvchisi

Elmurotova Gulbahor Ural qizi

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
4-kurs 222 – guruh talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17907597>

Annotatsiya: Hozirgi jamiyatimizning iqtisodiy rivojlanishida tashqi savdoning ahamiyati va o’rni, tashqi savdo eksportining ahamiyatli tomonlari va eksport va importning rivojlanish jarayonlari shuningdek Investitsiyaviy faoliyatning va Logistika tizimining ahamiyatli tomonlari haqida.

Kalit so’zlar: Iqtisod, tashqi savdo, eksport va import, integratsiya, logistika, investitsiya, bitim

Bilamizki hozirda yurtimizda har jahada katta – katta o’zgarishlar har sohada yuksalishlar shuningdek iqtisodiy, ijtimoiy, va talim sohalarda chet el davlatlari bilan olib borilayotgan hamkorliklarni ham bunga keltirib o’tishimiz mumkin albatta. Ulardan iqtisodiy tomondan olib qaralganda buning rivojlanishida tashqi savdo aloqalari, boshqa davlatlar bilan olib borilayotgan eksport va importning yuksak poydevor ekanligini biz bunga misol qilib keltiraolamiz.

Globalashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarida tashqi savdo aloqalari mamlakatlar va hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo’lmoqda. Bugungi kunda hududiy iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish tarmoqlarini diversifikatsiya qilish, yuqori qo’shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro bozorga chiqarish iqtisodiyotning eng ustuvor yo’nalishlaridan hisoblanadi.

Biz iqtisodiy tomondan bilamizki tashqi savdo bu bir mamlakatning boshqa mamlakat yoki mamlakatlar bilan olib boradigan savdosi. Mamlakatdan tovarlar chiqarish yani bu eksport, va mamlakatga tovarlar kiritish bu importdan tashkil topadi. Eksport va import yig’indisi mamlakatning tashqi savdo aylanmasini tashkil qiladi. Mamlakatlar o’rtasida savdo sotiqni rivojlanishi ikki tomonlama foyda olishni shuningdek har ikki tomon o’rtasidagi keyingi hamkorlikni ham rivojlanishiga turtki beradi. Hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonida tashqi savdo,





ayniqsa eksport, mintaqaning yalpi hududiy mahsuloti va sanoat salohiyatini oshirishda muhim ro'l o'ynaydi.

Eksport hajmning ko'payishi hududga qo'shimcha valyuta tushumini taminlabgina qolmay balki yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, zamonaviy texnologiyalarini joriy qilish va mehnat bozorida yangi ish o'rinlarini shakillantirish imkonini beradi. Import esa hududlar uchun zarur bo'lgan xom ashyo, texnologiya va uskunalar bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan eksport – import balansining muvozanati iqtisodiy barqarorlikni belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biridir. So'ngi yillarda O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va savdo siyosatini diversifikatsiya qilish, eksportbop mahsulot hajmini ko'paytirish qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan ulardan logistika markazlari barpo etilishini aytib o'tishimiz mumkin.

Aynan logistika haqida ham keng ravishda to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu so'z bizga begona emas albatta. Xo'sh logistika nima? Onlayn bozorda logistika qanchalik muhim? Degan savolga biz quydagi jumla orqali javob topamiz.

Logistika – bu boshqaruv va ratsionalizatsiya jarayon tovarlarni o'tkazish, soda qilib tushuntiradigan bo'lsak, iste'molchi va sotuchini o'zaro qilingan savdosidagi mahsulotni "A" nuqtadan "B" nuqtaga yetkazib berish degani. Ishlab chiqaruvchi yoki xaridor uchun ahamiyatli hisoblanadi. Iqtisodiyotda logistikadan foydalanish ushbu atama paydo bo'lishidan ancha oldin boshlangan. Uning tarixiy bosqichi haqida ham ko'p ma'lumot bilsangiz aynan shu sohaga bo'lgan qiziqishingiz oshadi. O'zining zamonaviy ko'rinishida logistika 20 asrda tovarlarni ishlab chiqarish va taqsimlash ko'lamining oshishi tufayli rivojlana boshladi. 20 asrning 50 – 60 yillarida AQSH da logistika alohida fan sifatida qarala boshladi va birinchi o'quv dasturlari yaratildi.

O'tgan asirning 70 yillaridan boshlab logistika global biznesga kira boshladi va ta'minot zanjirining ajralmas qismga aylangan. 90 yillarda logistika va ta'minot zanjirini boshqarish sohasida yangi texnologiyalar ishlab chiqildi, bu butun dunyo bo'ylab biznesning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Logistika har qanday biznesning muhim elementidir. U tashkilotningg samaradorligi va unumdorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ko'plab turli jihatlarni qamrab oladi. Logistikaning ham hozirda eng ko'p tarqalgan turlaridan. Tarnsport, ishlab chiqarish, inventar tarqatish, bojxona va boshqa logistika turlarini ayta olamiz.

Bundan tashqari biz mamlakatimizda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha bir qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat bu tashqi savdo va boshqa davlatlar, ularning yuridik va jizmoniy shaxslar bilan iqtisodiy munosabatlaridir. Ushbu munosabatlarni





iqtiyodiyotni liberallashtirish sharoitida rivojlantirish mahsulotlarni eksport qilish importyorlar bilan hisob kitoblarni to'g'ri amalga oshirish va ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri hisobga olib borish muhim hisoblanadi.

Mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyat munosbatlarni iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida rivojlantirish jarayonida, xo'jalik subyektlarida eksport va import operatsiyalari bo'yicha yuzaga keladigan hisoblashuv muommolari hisobini to'g'ri amalga oshirish va ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri hisobga olib borishni nazariy va amaliy jihatlarni tadqiq etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'li bilan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Biz bundan kelib chiqib, Investitsiya o'zi nima? Xorijiy investitsiyalarning mukammal jihatlari asli nimada? degan savolga quydagicha javob berolamiz albatta.

Investitsiya iqtisodiy faoliyatni asosi bo'lib, kelajakda daromad olish yoki qiymatni oshirishni kutish bilan aktivlarni sotib olish uchun resurslarni, odatda pulni jalb qilish harakatini ifodalaydi. Ya'ni bunda investitsiya lotinchada investio – “ o'rash” ma'nosini bildiradi. Investitsiya – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki chet ellarda turli tarmoqlarga, ijtimoiy iqtisodiy dasturlarga innovatsiya tadbirkorlik loyihalariga uzoq muddatli kapital kiritish. Pulning vaqtga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lar qo'yishdir. Investitsiya kapitalni muayyan muddatga bog'lashni yoki band qilishni bildiradi.

Hozirda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida ham ancha keng ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ko'plab davlatlar uchun mahalliy tabiiy xomashyo va mehnat resurslari bilan uyg'unlashgan chet el investitsiyalari makro va mikro darajada investitsiyalar ro'lini o'ynab davlatning tezkor iqtisodiy o'sishi uchun katalizator bo'lib xizmat qiladi. Chet ellik sarmoyadorlar o'zlarining investitsiyalariga qo'shimcha ravishda mamlakatga sivilizatsiyalshgan bozor elementini olib kelmoqdalar. Mamlakatimizda shuningdek investitsion muhitni keng yuritishda huquqiy jihatdan ham bir nazar tashlaydigan bo'lsak. Bu asosda ko'plab qonun hujjatlari mavjudligini guvohi bo'lamiz. Ulardan O'zbekiston Respublikasining “ Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida” gi O'RQ – 598 son 25.12.2019 qonuni qabul qilingan bo'lib ushbu qonun “ Chet el investitsiyalar to'g'risidagi” “ Investitsiya faoliyati to'g'risidagi “ “ Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari





to'g'risidagi" qonunlarning asosiy qoidalarining o'zida birlashtirgan yagona hujjat hisoblanadi va xalqaro shartnomalarga muvofiq xorijiy investorlarning huquqlarini himoya qilish va kafolatlarini ta'minlash bo'yicha kompleks chora tadbirlarni yaratib berilgan.

Xulosa. Tashqi savdo davlatlararo iqtisodiy aloqalarning muhim omili hisoblanib, davlatlararo iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga asos bo'lganligi sabab tashqi savdo xalqaro savdo shartnomalari, qimmatli qog'ozlar, tovarlar, xalqaro iqtisodiy aloqalarning majburiyatlarini bajaruvchi davlat mintaqalarida tashqi savdo kabi ahamiyatli omili sifatida mavjuddir. Shuning uchun tashqi savdo orqali davlatlar o'z mahsulotlarini chetga yetkazib berib, o'z daromadlarini oshirib, iqtisodiy rivojlanisi kundan-kunga o'sishi kuzatilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Xalqaro savdo huquqi darslik- 2018. TDYU
- 2." O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonun " O'RQ-598. 25.12.2019-yil
3. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning chet el tajribasi -Arxiv.uz
<https://arxiv.uz>
4. Xalqaro logistika o'quv qo'llanma – TDSHU 2025-yil 160 bet

